Qabul qilindi: 15-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 17-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-noyabr 2026-yil

SUN’IY INTELLEKT QO‘LLANILGAN BIZNES QARORLARIDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Isaqulova Nigora

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Huquqiy boshqaruv yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida qabul qilinadigan biznes qarorlari natijasida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, sun’iy intellekt yordamida shartnomalar tuzish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash, mahsulot va xizmatlar narxini belgilash hamda tadbirkorlik faoliyatini boshqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlar o‘rganiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimini ishlab chiquvchi, uni joriy etuvchi, boshqaruvchi va undan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida javobgarlikni taqsimlash masalalari yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining mazkur sohadagi holati tahlil qilinib, fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, biznes qarori, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, tadbirkorlik subyekti, zarar, sababiy bog‘lanish, ayb, shartnomaviy javobgarlik, delikt javobgarligi, algoritmik xato, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация: В статье представлен теоретико-правовой анализ вопросов гражданской ответственности, возникающих в связи с принятием бизнес-решений с использованием технологий искусственного интеллекта (ИИ). В частности, рассматриваются потенциальные правовые последствия, сопряженные с процессами, в которых задействован ИИ: заключение договоров, проведение финансовых операций, оценка кредитоспособности клиентов, ценообразование на товары и услуги, а также управление бизнес-процессами. Кроме того, в работе анализируется

распределение ответственности между различными субъектами предпринимательской деятельности — разработчиками, внедряющими организациями, лицами, осуществляющими управление или эксплуатацию систем ИИ. Также исследуется текущее состояние законодательства Республики Узбекистан в данной сфере и предлагаются научно обоснованные рекомендации по совершенствованию гражданского законодательства.

Ключевые слова: искусственный интеллект, бизнес-решение, гражданская ответственность, субъект предпринимательской деятельности, вред, причинно-следственная связь, вина, договорная ответственность, деликтная ответственность, алгоритмическая ошибка, цифровая экономика.

Abstract: This article provides a theoretical and legal analysis of civil liability issues arising from business decisions made through the use of artificial intelligence (AI) technologies. Specifically, it examines the potential legal consequences associated with AI-driven processes, such as the conclusion of contracts, the execution of financial transactions, the assessment of customer creditworthiness, the pricing of products and services, and the management of business operations. Furthermore, the article addresses the allocation of liability among the various business entities involved—namely, those who develop, implement, manage, or utilize AI systems. The current state of legislation in the Republic of Uzbekistan regarding this field is analyzed, and scientific proposals and recommendations aimed at improving civil legislation are presented.

Keywords: artificial intelligence, business decision, civil liability, business entity, damage, causal link, fault, contractual liability, delictual (tort) liability, algorithmic error, digital economy.

XXI asrda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning an’anaviy usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining biznes jarayonlariga keng tatbiq etilishi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, xavflarni baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Bugungi kunda sun’iy intellekt tizimlari korxona va tashkilotlarda mijozlar talabini

prognozlash, investitsiya yo‘nalishlarini aniqlash, shartnoma shartlarini tahlil qilish, narx siyosatini shakllantirish, moliyaviy operatsiyalarni boshqarish va xodimlar faoliyatini baholash kabi ko‘plab yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda. Biroq mazkur texnologiyalarning biznes faoliyatiga kirib kelishi yangi huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, sun’iy intellekt tomonidan noto‘g‘ri yoki noxolis tahlil asosida shakllantirilgan qaror natijasida tadbirkorlik subyekti yoki uchinchi shaxsga zarar yetkazilgan taqdirda, ushbu zarar uchun kim javobgar bo‘lishi lozimligi muhim ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Masalan, korxona sun’iy intellekt tizimidan foydalanib, muayyan mijoz bilan shartnoma tuzishni asossiz ravishda rad etsa, mahsulot narxini noto‘g‘ri belgilasa yoki moliyaviy operatsiyani xato prognoz asosida amalga oshirsa, yuzaga kelgan zarar uchun korxonaning o‘zi, sun’iy intellekt dasturini ishlab chiquvchi yoki tizimni joriy etgan tashkilotning javobgarligi masalasi kelib chiqadi.

Mazkur munosabatlarda sun’iy intellektning mustaqil qaror ishlab chiqish imkoniyati bilan inson va yuridik shaxslarning huquqiy javobgarligi o‘rtasidagi chegaralarni aniqlash zarurati mavjud.

Sun’iy intellekt tushunchasi zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, muayyan qonuniyatlarni aniqlash va belgilangan vazifalar doirasida natijalar shakllantirish imkoniyatiga ega. Sun’iy intellekt — insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, shu jumladan mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui.1

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonuni bilan sun’iy intellekt tushunchasi qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Mazkur qonun bilan «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunga sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslarini belgilovchi 7¹-modda kiritildi. Sun’iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari hamda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida

1 O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son «Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni.

ishlaydigan axborot tizimlari insonga, uning hayotiga, sog‘ligiga, erkinligiga, sha’niga, kadr-qimmatiga putur yetkazmasligi va uning boshqa ajralmas huquqlarini buzmasligi shart.2

Biznes qarori esa tadbirkorlik subyekti tomonidan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, rivojlantirish yoki boshqarish maqsadida qabul qilinadigan tashkiliy, moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy mazmundagi qarorlar majmuasidir.

Sun’iy intellekt qo‘llanilgan biznes qarorlarini quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

Moliyaviy qarorlar – kredit ajratish, investitsiya kiritish, moliyaviy xavflarni baholash va mablag‘larni taqsimlash.

Shartnomaviy qarorlar – shartnoma loyihalarini tayyorlash, shartlarni tahlil qilish, shartnoma tuzish yoki uni rad etish.

Marketing qarorlari – mahsulot va xizmatlar narxini belgilash, mijozlar talabini o‘rganish va reklama strategiyasini ishlab chiqish.

Boshqaruv qarorlari – xodimlar faoliyatini baholash, ish jarayonlarini optimallashtirish va korxonaning rivojlanish strategiyasini belgilash.

Tijorat qarorlari – mahsulot yetkazib beruvchilarni tanlash, xaridlarni rejalashtirish va hamkorlik munosabatlarini tashkil etish.

Mazkur qarorlarning barchasi muayyan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimidan foydalanish jarayonida qonunchilik talablariga, shartnoma shartlariga yoki boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlariga zid xatti-harakat sodir etilishi mumkin. Masalan, korxona sun’iy intellekt tizimiga mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini qonunga xilof ravishda qayta ishlash imkonini bersa, ushbu faoliyat natijasida huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin. Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risidagi qonunga ko’ra, mulkdor, operator va uchinchi shaxs tomonidan shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanish bu ma’lumotlarning zarur darajada himoya qilinishini ta’minlash sharti bilan faqat ushbu shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha

2 O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son.

ilgari bildirilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi.3

Ishlab chiquvchi sun’iy intellekt tizimining dasturiy arxitekturasini yaratish, algoritmlarni ishlab chiqish, tizimni o‘qitish va uning texnik imkoniyatlarini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Agar tizimdagi dasturiy xato, xavfsizlik nuqsoni yoki ishlab chiqish jarayonidagi kamchilik natijasida foydalanuvchiga zarar yetkazilsa, ishlab chiquvchining fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalasi yuzaga kelishi mumkin. Bunda ishlab chiquvchining javobgarligi avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Zarar, huquqqa xilof xatti-harakat, sababiy bog‘lanish va tegishli javobgarlik rejimida ayb kabi shartlar aniqlanishi lozim. Masalan, korxona tomonidan foydalanilayotgan sun’iy intellekt tizimi noto‘g‘ri algoritm sababli mijozlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini xato baholasa va buning natijasida korxona zarar ko‘rsa, dasturiy mahsulotdagi kamchilik uchun ishlab chiquvchining javobgarligi masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sun’iy intellekt tizimidan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektining javobgarligi.

Biznes faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanadigan yuridik shaxs, odatda, tizim yordamida shakllantirilgan qarorlarni amaliyotga tatbiq etuvchi subyekt hisoblanadi.

Shu sababli korxona sun’iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan har qanday natijani avtomatik ravishda texnologiya zimmasiga yuklay olmaydi. Agar korxona sun’iy intellekt tomonidan shakllantirilgan xulosalarni yetarli darajada tekshirmasdan, mijozlar yoki hamkorlar bilan munosabatlarda qo‘llasa va natijada ularga zarar yetkazsa, tegishli huquqiy asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda korxonaning javobgarligi yuzaga kelishi mumkin.

Bunda tadbirkorlik subyekti quyidagi majburiyatlarga rioya qilishi lozim:

-sun’iy intellekt tizimidan qonuniy foydalanish;

-tizimga kiritiladigan ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash;

-muhim biznes qarorlarini tegishli darajada nazorat qilish;

-shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish;

-tizimdagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

Sun’iy intellekt tizimi operatorining javobgarligi.

3 O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son.

Operator sun’iy intellekt tizimining amaliy faoliyatini tashkil etuvchi, uni sozlovchi va ishlash jarayonini nazorat qiluvchi subyekt hisoblanadi. Agar operator tizimni noto‘g‘ri sozlasa, xavfsizlik choralarini ta’minlamasa yoki texnik nosozliklarni o‘z vaqtida bartaraf etmasa, buning natijasida yuzaga kelgan zarar uchun javobgarlik masalasi kelib chiqishi mumkin.

Bu yerda asosiy muammo javobgarlikning bir nechta subyekt o‘rtasida taqsimlanishidir. Masalan, sun’iy intellekt tizimidagi dasturiy nuqson ishlab chiquvchining xatosi natijasida yuzaga kelgan, operator esa mazkur nuqsonni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lganiga qaramasdan, zarur choralarni ko‘rmagan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda har bir subyektning xatti-harakati va zarar kelib chiqishidagi hissasi alohida baholanishi lozim.

An’anaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarda zarar yetkazgan shaxsning xatti-harakatlari, aybi va zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash imkoniyati mavjud. Fuqorolik kodeksiga ko’ra G‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.4

Biroq sun’iy intellekt tizimlarida qaror shakllanish jarayoni murakkab algoritmlar, katta hajmdagi ma’lumotlar va o‘z-o‘zini o‘qitish mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Natijada zarar ko‘rgan shaxs quyidagi muammolarga duch keladi: noto‘g‘ri qarorning qanday shakllanganligini aniqlash qiyinligi, algoritmning ishlash mexanizmi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmaslik, texnik hujjatlarning ishlab chiquvchi yoki operator ixtiyorida bo‘lishi, zarar va algoritmik xato o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni isbotlash murakkabligi, sun’iy intellekt tizimining turli subyektlar tomonidan boshqarilishi.

Shu munosabat bilan quyidagi mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, sun’iy intellekt tizimining qaror qabul qilish jarayoniga oid texnik ma’lumotlarni saqlash majburiyatini belgilash.

Ikkinchidan, algoritmik qarorlar bo‘yicha mustaqil texnik ekspertiza institutini

4 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. 1996-yil 29-avgust.

rivojlantirish.

Uchinchidan, zarar ko‘rgan shaxsga qaror qabul qilish jarayoni haqida tushuntirish olish imkoniyatini yaratish.

To‘rtinchidan, tizim faoliyatiga oid muhim ma’lumotlar ishlab chiquvchi yoki operator nazoratida bo‘lgan hollarda dalillarni taqdim etish majburiyatini oqilona taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bu mexanizmlar zarar ko‘rgan shaxsning buzilgan huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish xalqaro miqyosda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi ushbu sohada huquqiy tartibga solishning turli modellarini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqida sun’iy intellektdan foydalanish masalalari, avvalo, 2024-yilda qabul qilingan EU Artificial Intelligence Act (Regulation (EU) 2024/1689) orqali tartibga solinadi. Mazkur hujjat sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflash, yuqori xavfli tizimlar uchun maxsus talablarni belgilash, shaffoflik va inson nazoratini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv biznes subyektlari uchun sun’iy intellektdan foydalanishda xavflarni oldindan baholash va huquqiy majburiyatlarni bajarish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, AI Actning o‘zi barcha fuqarolik-huquqiy zararlar uchun javobgarlikni belgilaydigan universal hujjat emas. Zararni qoplash masalalari boshqa tegishli huquqiy normalar asosida hal etiladi.

Germaniya huquqiy tizimida sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq zararlarni qoplash masalalari umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik qoidalari, mahsulot javobgarligi va shartnomaviy munosabatlar doirasida ko‘rib chiqiladi. Bunda dasturiy mahsulotdagi nuqson, ishlab chiquvchining majburiyatlari va foydalanuvchining ehtiyotkorlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

AQSHda sun’iy intellekt bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy nizolar ko‘pincha mahsulot javobgarligi, shartnoma majburiyatlarini buzish, ehtiyotsizlik va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qoidalari asosida baholanadi.

Mazkur yondashuvda sun’iy intellektning o‘zi emas, balki uning yaratilishi, sotilishi

va qo‘llanilishi bilan bog‘liq inson hamda tashkilotlarning xatti-harakatlari huquqiy baholash markazida turadi.

O‘tkazilgan ilmiy-huquqiy tahlil asosida O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt qo‘llanilgan biznes qarorlarida fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Fuqarolik kodeksida sun’iy intellektdan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning maxsus qoidalarini ishlab chiqish. Kodeksga sun’iy intellekt tizimidan foydalanish natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga oid maxsus norma kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu normada zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan subyektning vazifalari, tizim ustidan nazorat darajasi va texnik kamchiliklarning xususiyatlarini hisobga olish nazarda tutilishi kerak.

Javobgarlik subyektlarini differensiallashtirish.

Sun’iy intellekt tizimini ishlab chiquvchi, operator va undan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektining huquq va majburiyatlarini alohida belgilash lozim.

Bunda javobgarlik har bir subyektning huquqbuzarlik sodir etilishidagi ishtiroki, nazorat imkoniyati va zarar kelib chiqishidagi sababiy hissasiga qarab aniqlanishi kerak.

Algoritmik qarorlar bo‘yicha hujjatlashtirish majburiyatini joriy etish.

Tadbirkorlik faoliyatida muhim huquqiy va iqtisodiy oqibatlarga olib keladigan sun’iy intellekt qarorlarini shakllantirish jarayonida foydalanilgan ma’lumotlar, qaror natijalari va tegishli texnik qaydlarni saqlash mexanizmini belgilash taklif etiladi. Bu zarar yetkazilgan holatlarda dalillarni aniqlash va javobgarlik masalasini hal etishni yengillashtiradi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini qayta ko‘rib chiqishni emas, balki uning an’anaviy qoidalarini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirishni talab qiladi. Bunda asosiy maqsad sun’iy intellektdan foydalanishni cheklash emas, balki undan foydalanish jarayonida inson, tadbirkorlik subyekti va boshqa fuqarolik huquqi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. 1995-yil 21-dekabr.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. 1996-yil 29-avgust.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son.

O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son.

O‘zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Qonuni. 2022-yil 29-sentabr, O‘RQ-792-son.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son «Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni.

II. Xalqaro hujjatlar

Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act).

OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. 2019.

UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. 2021.